
Туман ҳокимининг фармойиши:Туманда Қурбон Ҳайити байрамини нишонлаш муносабати билан йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш ҳақида



FARG'ONA VILOYATI FURQAT TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2022 - yil 8 - iyul

66-11-164-F/22

Furqat tuman hokimligi

Tumanda Qurbon Hayiti bayramini nishonlash munosabati bilan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash haqida

Furqat tumanida Qurbon Hayiti bayramini nishonlanishi munosabati bilan Hayit namozi o'qiladigan joylarda fuqarolar va harakat xavfsizligini ta'minlash hamda tuman Ichki ishlar bo'limining 2022-yil 8-iyuldagi 28/98-sonli aloqa xatini ko'rib chiqib,

1. Furqat tumanida Qurbon Hayiti namozi "Navbahor", "Ingichka", "Chilgijiyda" MFYlarida joylashgan masjidlarda 2022-yil 9-iyul kuni o'tkazilishi inobatga olinsin.

2. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i T.Egamberdiyev 2022-yil 8-iyul kuni soat 00:00dan 9-iyul kuni soat 08:00 gacha tuman hududidan kesib o'tgan 4K-926 "Yaypan-Abdusamad" avtomobil yo'lining 14-kilometridagi Navbahor shaharchasidagi chorrahadan Yaypan yo'nalishi bo'yicha "Shabada" xususiy firmasiga qarashli hammom oldidagi chorrahagacha, "Ingichka", va "Chilgijiyda" MFYlarida joylashgan masjidlar oldidagi yo'llarni har ikki tomonidan 200 metr masofagacha to'sib aylanma yo'nalish tashkil etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i T.Egamberdiyev tuman Yo'llardan foydalanish unitar korxonasi rahbari M. Isomiddinov bilan birgalikda tashkil etilayotgan to'siqlar turli favqulotda holatlarni oldini olish maqsadida og'ir yuk mashinalari bilan to'silishini nazoratga olsin.

4. Ushbu qaroming bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari R.Xamdamov hamda tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i T.Egamberdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



J.Jumanov